

QONUN QABUL QILISH JARAYONIDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINING ROLI

RAXMONOVA RAYXONA NABIJON QIZI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI YURIDIK FAKULTETI 1-BOSQICH TALABASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ishtirokining huquqiy asoslari, shakl va uslublari, hamda ularning amaliy ahamiyati yoritiladi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, ochiqlik va oshkoraliq tamoyillarining qonun qabul qilish tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, jamoatchilik muhokamasi institutining rivojlanishiga oid Prezident farmonlari va qonun hujjatlari asosida tahlillar keltiriladi. Ishda xorijiy tajriba bilan taqqoslashlar orqali fuqarolarning qonunchilikda ishtirokini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so'zlar: Qonun ijodkorligi, jamoatchilik ishtiroki, ochiqlik, fuqarolik jamiyat, jamoatchilik muhokamasi, normativ-huquqiy hujjatlar, qonunchilik jarayoni, ijtimoiy hamkorlik.

Har qanday demokratik jamiyatda qonunchilik jarayonining ochiqligi va shaffofligi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, fuqarolarning fikr va takliflarini hisobga olgan holda qonunlar qabul qilish amaliyoti shakllanmoqda. Bu esa nafaqat jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshiradi, balki qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning sifatini ham yuqori bosqichga olib chiqadi. Mazkur mavzuda jamoatchilik ishtirokining qonunchilik jarayonidagi roli, mavjud mexanizmlari, muammolari va rivojlanish istiqbollari atroflicha tahlil qilinadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar sharoitida qonun qabul qilish jarayonining ochiqligi, oshkoraliqi va

jamoatchilik ishtiroki masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday normativ-huquqiy hujjatning hayotiyligi va samaradorligi, eng avvalo, fuqarolarning fikr-mulohazalari, ehtiyojlari va takliflarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishiga bog'liq.

Jamoatchilik ishtirokini ta'minlovchi asosiy qonunchilik hujjatlaridan biri bu 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan "**Jamoatchilik nazorati to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunidir. Ushbu hujjatda jamoatchilik muhokamasi, jamoaviy murojaatlar, ommaviy axborot vositalari orqali nazorat shakllari belgilab berilgan. Xususan, qonunning 9-moddasida "ijtimoiy ahamiyatga moillik masalalari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ommaviy muhokama qilish" jamoatchilik muhokamasi sifatida belgilanadi.

Bundan tashqari, "**Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida**"gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq, qonun loyihalarini Oliy Majlis palatalarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinib, fuqarolar tomonidan fikr va mulohazalar berilishi uchun imkoniyat yaratilgan. Bu esa jamoatchilik ishtirokining qonuniy asosga ega ekanligini, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faolligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-sonli Prezident farmoni bilan tasdiqlangan "**2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi**"da ham qonunchilik jarayonlarida jamoatchilik muhokamalari, fuqarolik tashabbuslari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar yig'inlarining ishtirokini kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Amaliyotda esa jamoatchilik ishtiroki quyidagicha ko'zga tashlanadi:

- qonun loyihalarini parlament saytlari orqali e'lon qilish;
- nodavlat tashkilotlar, mutaxassislar va ommaviy axborot vositalarining munosabatlarini olish;
- muhim huquqiy hujjatlarni muhokama qilish bo'yicha forumlar, seminar va eshituvlar tashkil etish.

Bu jarayonlar fuqarolarning faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash va qonun ijodkorligini yanada hayotiy

qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, jamoatchilik ishtiroki orqali ijtimoiy ahamiyatga ega qonunlarning mazmunan boyib borayotgani kuzatilmoqda.

Bunday yondashuv qonunchilik faoliyatining demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotganini, davlat va jamiyat o'rtasida ijtimoiy hamkorlik shakllanayotganini ko'rsatadi.

Qo'shimcha qilib, 2019-2024 yillar oralig'idagi O'zbekiston saylovlaridagi ishtirok darajalarini keltirishimiz mumkin:

YIL	SAYLOV TURI	SAYLOVCHILARNING ISHTIROKI (%)
2019	Oliy Majlis va mahalliy kengashlar saylovi	71,1%
2021	Prezident saylovi	80,12%
2023	Muddatidan oldin president saylovi	84,5%
2024	Oliy Majlis va mahalliy kengashlar saylovi	447,62%

Ta'kidlash joizki, har bir qabul qilinayotgan qonunchilik hujjati xalq irodasini ifoda etishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ko'zda tutishi kerak. Buning uchun esa fuqarolar normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilingandan keyin emas, balki ular bilan loyihaligidayoq tanishib chiqishlari, uning mazmuni shakllantirilishida bevosita ishtirok etishlari kerak bo'ladi. Albatta, bu borada turli ko'rinishdagi ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi (regulation.gov.uz), "Mening fikrim" jamoaviy murojaatlar portallarini misol

qilib keltirish mumkin. Lekin tahlil qilinayotgan ushbu masala ahamiyati jihatdan nihoyatda dolzarb va tabiatiga ko'ra murakkab jarayon bo'lganligi sababli uning tizimli ravishda ishslashga ixtisoslashgan, aniq mexanizmlarini



amaliyotga joriy etish va huquqiy asoslarini qonunchilik bilan belgilab berish kerak[4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'zining 2017 yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida bildirib o'tgan quyidagi fikrni alohida ta'kidlab o'tish zarur. "Barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart. Har bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidan – fuqarolardan, joylardagi xalq deputatlari Kengashlaridan olish tartibini keng joriy etish zarur. Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o'rtasida har tomonlama

muhokama qilish tizimidan samarali foydalanishimiz kerak. Oliy Majlis rahbariyati qonunlar muhokamasiga keng xalq ommasini jalb qilish, buning uchun zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jumladan, Internet tarmog'ida maxsus "maydon"lar yaratishi zarur". Bundan tashqari, norma ijodkorligi jarayonini yanada takomillashtirish, bu jarayonda fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham belgilab qo'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-son

Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 47-bandida "**Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqish belgilangan edi. Ushbu loyihada quydagilarni joriy etish ko'zda tutildi: muhim ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy ahamiyatga ega qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishning barcha bosqichida ushbu loyihalarini Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytlarga joylashtirishning majburiyligi; qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining muhokamasida fuqarolik jamiyatni institutlari va tegishli ilmiy tadqiqot muassasalarini vakillarining keng

ishtirokini ta'minlash. Bundan ko'rindiki, yangi tartibdagi Qonun bilan jamoatchilikni normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish jarayonida faol ishtirokini ta'minlash maqsadida internet tarmog'ida rasmiy veb-saytlarning rolini oshirib, barchaga qulaylik yaratish maqsad qilib qo'yilgan.

Deputatlar qonunlarni "nomigagina ko'rib chiqib, bir ovozdan ma'qullash" degan eski amaliyotdan voz kechib, ularni jiddiy va batafsil muhokama qilishni o'rganmoqda.

Aholi tomonidan bildirilgan fikrlar, tanqidiy mulohazalar inobatga olinmoqda va qonun loyihalari takomillashtirilmoqda. Bugungi kunda qonunlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasiga kiritish va ulardan tushgan taklif va mulohazalar asosida loyihalarni takomillashtirish bo'yicha bir qator ijobjiy ishlar olib borilmoqda, buning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "**Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to'g'risida**"gi, "**Jamoatchilik nazorati to'g'risida**"gi, "**Qonunlar loyihalarini**

tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi, "**Ijtimoiy sheriklik to'g'risida**"gi, "**Referendum to'g'risida**"gi, "**Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida**"gi kabi bir qator O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida qonun loyihalari muhokamalarida fuqarolar ishtirokining mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. Mazkur qonunlarning qabul qilinishidan asosiy maqsad davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalariga daxldor qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyo ovozga (referendumga) qo'yiladi, deb mustahkamlangan.

Jamoatchilik muhokamasi tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "**Jamoatchilik nazorati to'g'risida**"gi O'RQ-474 son Qonunining 9-moddasida quyidagicha izohlangan[5]: Ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni, shuningdek

normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalarini ommaviy muhokama qilish jamoatchilik muhokamasidir.

Jamoatchilik muhokamasi turli ijtimoiy guruhlarning vakillari, shu jumladan muhokama etilayotgan masala o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan yoki daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar ishtirokida o‘tkazilishi mumkin. Jamoatchilik muhokamasi ommaviy va ochiq o‘tkaziladi. Jamoatchilik muhokamasining ishtirokchilari jamoatchilik muhokamasiga kiritilgan masalalar yuzasidan o‘z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqli. Jamoatchilik muhokamasi ommaviy axborot vositalari orqali va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o‘tkazilishi mumkin. Jamoatchilik muhokamasining tashkilotchisi jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan masalalar, muhokamani o‘tkazish muddati va tartibi to‘g‘risidagi axborotni oldindan e’lon qiladi. Bunda tashkilotchi o‘z ixtiyoridagi, jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan masalalarga taalluqli bo‘lgan materiallardan jamoatchilik muhokamasining barcha ishtirokchilari erkin foydalanishini ta’minlaydi.

Bundan ko‘rinadiki, jamoatchilik muhokamasini tashkil etish fuqarolarning jamiyatda olib borilayotgan islohotlarga, qonunlarga munosabatini erkin bildirishlari mumkin. Shuningdek, qaror bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazishda kelib tushgan taklif va fikr-mulohazalar umumlashtirilib, tartibga solish ta’sirini baholash bo‘yicha hisobotga kiritilishi hamda majburiy tartibda normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organga taqdim etilishi va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokamasi portalida e’lon qilinishi belgilandi. Bu ham qonun loyihalarining muhokamasini o‘tkazish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qilingan ijobiy islohotlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qonun loyihalarini muhokamasi jarayonida fuqarolar muhokamaga qo‘yilgan loyihaning har bir moddasiga o‘z fikr, taklif va mulohazalarini bildirishlari – bu loyihani muhokamaga qo‘ygan davlat organi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu loyihaning kamchiligi,

bo'shliqlarini to'ldirishlariga imkon yaratadi, ya'ni muhokama jarayoni davlat organi uchun loyihani ishlab chiqishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatib beruvchi ko'zgu vazifasini o'taydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi 434-II-sod Konstitutsiyaviy Qonuni. <https://lex.uz/docs/51961>.
2. Xudoyberdiyev A.Q. O'zbekiston Respublikasi Qonun ijodkorligi jarayonida ijtimoiy fikrni ifodalashning nazariy muammolari. Dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2010. – 4 b.
3. Boymurodov B. Norma ijodkorligida fuqarolar ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari. Maqola. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent: 2020. – 85 b.
4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474 son Qonuni. <https://lex.uz/docs/3679092>

Internet saytlari:

1. **Lex.uz**
2. **Innovative Academy**
3. **Daryo.uz**
4. **Gazeta.uz**
5. **OSCE**